



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING**  
**BUYRUG‘I**

2024 - yil « 6 » dekabr 457 -son

Toshkent shahri

**Barcha oliy, o‘rta maxsus va kasbiy ta‘lim tashkilotlari talabalari  
va o‘quvchilarining qishki ta‘til davrini mazmunli o‘tkazish hamda  
professor-o‘qituvchilar uchun seminarlar tashkil etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy, o‘rta maxsus va kasbiy ta‘lim muassasalari talaba va o‘quvchilarining qishki ta‘tilini tashkil etish to‘g‘risida” 2022-yil 3-oktabrdagi 560-son qarori ijrosini ta‘minlash, oliy ta‘lim tashkilotlari talabalari hamda o‘rta maxsus va kasbiy ta‘lim tashkilotlari o‘quvchilarining qishki ta‘til davrini mazmunli o‘tkazish va professor-o‘qituvchilar uchun seminarlar tashkil etish maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. Barcha oliy, o‘rta maxsus va kasbiy ta‘lim tashkilotlarida (davlat, nodavlat, xorijiy) qishki ta‘til davri **2024-yil 25-dekabr**dan **2025-yil 7-yanvarga** qadar (shu kuni ham) etib belgilansin.

2. Barcha oliy ta‘lim tashkilotlari rektorlari (filial direktorlari):

qishki ta‘tilni **2024-yil 25-dekabr**dan **2025-yil 7-yanvarga** qadar belgilanganligini talabalarga yetkazsin;

2024/2025 o‘quv yili kuzgi semestri yakuni bo‘yicha o‘tkaziladigan **yakuniy nazorat ishlari** belgilangan grafik asosida **2025-yil 13-yanvardan tashkil etsin;**

talabalarga 2024/2025 o‘quv yili kuzgi semestri yakuni bo‘yicha o‘tkaziladigan yakuniy nazorat ishlari bilan bog‘liq barcha ma‘lumotlarni yetkazish hamda tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borsin;

2024/2025 o‘quv yili kuzgi semestri yakuni bo‘yicha yakuniy nazorat ishlarini talab darajasida tashkil etish va shaffofligini ta‘minlash bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirsin;

bayram kunlari va qishki ta‘til davrida talabalar turar joylarida qolayotgan talabalarning xavfsizligi va bo‘sh vaqtini unumli o‘tkazsin, shuningdek, ularning ovqatlanishini mazkur oliy ta‘lim tashkilotining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan amalga oshirsin;

**2024-yil 23-dekabr**dan boshlab, har kuni tyutorlar tomonidan talabalarning doimiy yashash joyiga xavfsiz yetib borishi va qishki ta‘til davridagi faoliyatini qat‘iy ravishda monitoringini yuritsin hamda kunlik monitoring bo‘yicha

ma'lumotlarni vazirlikning **Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasiga** (N.Kasimov) taqdim etilishini ta'minlasin;

talabalar uchun ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklar doirasida onlayn olimpiada hamda turli tanlovlarni tashkil etsin;

olimpiada, tanlov hamda muayyan yutuqlarga erishgan talabalarni oliy ta'lim tashkilotining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan rag'batlantirsin;

**2024-yil 23-dekabr**dan **2025-yil 11-yanvarga** qadar professor-o'qituvchilar uchun o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini to'liq joriy etish bo'yicha yuqori saviyada o'quv seminarlarini tashkil etsin;

o'quv seminarlariga malaka oshirish kurslarida tayyorlangan trenerlar, shu jumladan xorijiy mutaxassislar (onlayn rejimda) jalb etsin;

**2025-yil 6-yanvarga** qadar talabalar turar joylarini belgilangan tartibda dezinfeksiya qilish va talabalarning ta'tildan qaytishi uchun tayyor holga keltirish choralarini ko'rsin.

**3. Vazir o'rinbosari** (S.Buzrukxonov), **Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi** (N.Kasimov), **Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi** (A.Akramov):

**Transport vazirligi, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ** hamda **"Uzbekistan airways" AJ** bilan kelishuv asosida hududlar (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri)ga ketadigan talaba va o'quvchilarning qishki ta'til davrida doimiy yashash joyiga borib-kelishi uchun qulayliklar yaratish maqsadida **2024-yil 23-dekabr**dan **2025-yil 10-yanvarga** qadar (shu kuni ham) **50 foiz chegirma** asosida yo'l chiptalari sotuvi yo'lga qo'yilishini ta'minlash choralarini ko'rsin;

**2024-yil 14-dekabr**ga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarga jo'nab ketadigan talaba va o'quvchilar soni, ularning o'z yashash manzillariga jo'nab ketish kunlari hamda transport vositalari turi haqidagi ma'lumotlar tayyorlanishini muvofiqlashtirsin;

bayram kunlari va qishki ta'til davrida o'quvchi va talabalar turar joylarida qolayotgan o'quvchi va talabalarning bo'sh vaqti mazmunli tashkil etilishini ta'minlash choralarini ko'rsin.

**4. Tizimida akademik litseylar mavjud oliy ta'lim tashkilotlari rektor (filial direktor)lari:**

qishki ta'til **2024-yil 25-dekabr**dan **2025-yil 7-yanvarga** qadar (shu kuni ham) belgilanganligini akademik litseylarga yetkazsin;

akademik litsey o'quvchilarini qishki ta'til davrini mazmunli o'tkazish maqsadida chuqurlashtirilgan fanlardan onlayn olimpiadalar, turli intellektual tanlovlar tashkil etsin;

akademik litsey pedagoglariga o'quv jarayonining uslubiy ta'minotini yaxshilash, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirish



ko'nikmalarini yaxshilash bo'yicha tegishli oliy ta'lim tashkilotining tajribali professor-o'qituvchilari ishtirokida o'quv seminarlar tashkil etsin.

**5. Professional ta'lim tizimini rivojlantirish departamenti (U.Alijonov), Hududiy bo'linmalar bilan ishlash boshqarmasi (F.Mo'minov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (B.Kaipbergenov), viloyatlar va Toshkent shahar oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarma boshliqlari:**

kasbiy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlari kasbiy salohiyatini oshirish hamda qishki ta'til davrida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan o'quv seminarlar tashkil etsin;

o'quv jarayonini tashkil etish grafiklarini ishlab chiqishda metodik yordam ko'rsatsin;

kasbiy ta'lim tashkilotlari (faqat kasb-hunar maktablari)ning biznes asoslari fan o'qituvchilari uchun Germaniya metodikasi asosida ishlab chiqilgan "Karyerani rivojlantirish" maxsus kursi bo'yicha o'quv seminarini tashkil etsin;

kasbiy ta'lim tashkilotlari bilan korxonalar o'rtasida tuzilgan amaliyot shartnomalari monitoringini amalga oshirsin.

**6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarma boshliqlari:**

qishki ta'tilni **2024-yil 25-dekabr**dan **2025-yil 7-yanvarga** qadar (shu kuni ham) belgilanganligini kasbiy ta'lim tashkilotlariga yetkazsin;

kasbiy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlari uchun o'tkaziladigan o'quv seminarlar reja grafigini ishlab chiqsin;

o'quv seminarlar tashkil etiladigan kasbiy ta'lim tashkilotlarini belgilash va ularni barcha zaruri vositalar bilan ta'minlash choralari ko'rsin;

barcha kasbiy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarining o'quv seminarlarda ishtirokini ta'minlasin;

mazkur o'quv seminarlardan kelib chiqib, hududiy boshqarmalar vakillari ishtirokida har bir kasbiy ta'lim tashkilotida pedagog kadrlar bilan ta'limning sifat samaradorligini oshirishga qaratilgan o'quv seminarlari **2025-yil 7-yanvarga** qadar tashkil etilishini ta'minlasin hamda mazkur jarayonlarni muvofiqlashtirib borsin;

bayram kunlari va qishki ta'til davrida o'quvchilar turar joylarida qolayotgan o'quvchilarning xavfsizligi va bo'sh vaqtini unumli o'tkazilishini tashkil etsin;

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hududiy bo'linmalari bilan birgalikda har bir kasbiy ta'lim tashkiloti va umumta'lim maktablari kesimida 9- va 11-sinf bitiruvchilarini kasbga yo'naltirish bo'yicha chora-tadbir dasturi ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

kasbiy ta'lim tashkilotlari tomonidan qishki ta'til davrida o'quvchilarning ma'naviy va shaxsiy rivojlanishi bilan bog'liq adabiyotlarni mutolaa qilishlari va ta'tildan so'ng ma'naviyat soatlari darslarida taqdimotlar o'tkazishlarini muvofiqlashtirsin.

7. Belgilab qo'yilsinki, qishki ta'til davrida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga shaxsan oliy, o'rta maxsus hamda kasbiy ta'lim tashkilotlarining rahbarlari javobgar hisoblanadi.

8. Mazkur buyruq ijrosining nazorati vazirning birinchi o'rinbosari Sh. Daliyev zimmasiga yuklansin.

**Vazir**



**K. Sharipov**

**NUSXA  
ASLIGA TO'G'RI**